

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI**



“TASDIQLAYMAN”

Qo‘qon davlat universiteti

rektori D.Sh.Xodjaeva

30-iyun 2025-yil

**NUTQ KO‘NIKMALARI INTEGRATSIYASI
O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	100000 – Ta’lim
Ta’lim sohasi:	110000 – Ta’lim
Ta’lim yo‘nalishi:	60110900- Xorijiy til va adabiyot (Ingliz tili)

Fan/modul kodi		O'quv yili	Semestr	ECTS-Kreditlar
NKI13408		2025-2026	3-4	8
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek/rus/ingliz		Haftadagi dars soatlari 4
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Nutq ko'nikmalari integratsiyasi	240	120	120
		240	120	120
2.	I. Fanning mazmuni Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga tilning og'zaki va yozma shakllarini integrallashgan holda o'rgatish, turli kontekstlardagi muloqot malakalarini rivojlantirish, xususan o'rganilayotgan chet tili ko'nikmalari to'g'risidagi amaliy va nazariy bilimlarini takomillashtirish hamda egallangan bilim, ko'nikma, malakalarini kasbiy va ilmiy faoliyatda erkin qo'llay olishlarini ta'minlashdir. Fanning vazifasi – umume'tirof etilgan xalqaro me'yorlarga ko'ra talabalarining o'rganilayotgan chet tilini C1 darajada egallashlari uchun zaruriy nutq ko'nikmalarini integrallashgan tarzda o'rgatish va muloqot malakalarini rivojlantirishdir. II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) Ushbu fondan ma'ruza mashg'ulotlari rejalashtirilmagan. Fanning yetakchi TOP-300 xalqaro universitetlari dasturi asosida tayyorlanganligi: Nutq ko'nikmalari integratsiyasi fani dasturi dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalaridan biri bo'lgan UCL – London's Global University universiteti (Buyuk Britaniya)ning Nutq ko'nikmalari integratsiyasi fanining o'quv dasturi asosida takomillashtirilgan. Mazkur universitet QS World University Rankings 2024 bo'yicha 9-o'rinni egallagan bo'lib, til sohasi bo'yicha yuqori malakali ilmiy-uslubiy bazaga ega. Dasturda quyidagi asosiy jihatlar inobatga olingan: Nazariy va amaliy yondashuv uyg'unligi – The building blocks of English sentences: word classes, phrases Tanqidiy fikrlash va tahlil ko'nikmalarini rivojlantirish – talabalar huquqiy holatlarni mustaqil tahlil qilish, dalillarga tayangan holda huquqiy xulosa chiqarishni o'rganadilar. Amaliy mashg'ulotlar			

II.I. Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1-Modul. Nutq ko'nikmalari integratsiyasi

Nutq ko'nikmalari integratsiyasi moduli 1-4 semestrlar davomida o'qitiladi. Mazkur kurs to'rt ko'nikma: so'zlashish, tinglab tushunish, o'qish va yozuv bo'yicha ko'nikmalarni baravar rivojlantirishga xizmat qiladi. Modul yakunida talabalar Yevropa Kengashining "Chet tilini egallash umumevropa kompetensiyalari: o'rganish, o'qitish va baholash" to'g'risidagi umume'tirof etilgan xalqaro me'yorlari (CEFR) bo'yicha o'rgangan chet tillarini 1-4 semestrlar bo'yicha bosqichma-bosqich B1 dan C1darajagacha amalda qo'llay olishlari nazarda tutiladi.

1 kurs davomida talabalar quyidagi mavzular bo'yicha loyiha ustida ish olib boradilar:

1-mavzu. Shaxs va shaxsiyat

Talabalar o'z tarjimayi hollarini yozadilar. Xorijiy mamlakat fuqarolarining o'zaro salomlashishlari va suhbatga kirishishlari haqidagi dialoglarni o'qiydilar va o'zbeklarning odatlari bilan taqqoslaydilar.

2-mavzu. O'zbekiston va o'rganilayotgan chet tilida so'zlashuvchi mamlakatlar milliy ramzlari, davlat tuzilishi

- Talabalar turli milliy ramzlarni muhokama qiladilar.
- Talabalar diagramma ko'rinishida o'rganilayotgan chet tilida so'zlashuvchi mamlakatlar va O'zbekistonning siyosiy davlat tuzilishini tasvirlaydilar va taqqoslaydilar.

3-mavzu. Oziq-ovqat

- Talabalar Venn diagrammasidan foydalangan holda turli mamlakatlarda kim nima iste'mol qilishi yoki qilmasligi haqidagi ma'lumotlarni keltiradilar va buning sabablarini muhokama qiladilar.
- Talabalar o'zbek va xorijiy mamlakatlar milliy taomlarini taqqoslaydilar

4-mavzu. Sihat-salomatlik

- Talabalar xorijliklarning sogʻlom va bardam boʻlish uchun nimalar qilishlari haqidagi tekstni oʻqiydilar hamda oʻz mamlakatidagi insonlar bu borada nimalar qilishlarini aniqlash maqsadida qiyosiy soʻrovnoma oʻtkazadilar.
- Talabalar turli mamlakatlardagi chekishni taʼqiqlovchi tartib-qoidalar haqida maʼlumotlarni toʻplaydilar va Oʻzbekistondagi mavjud tartiblar bilan solishtiradilar.

5-mavzu. Oilaviy qadriyatlar

- Talabalarga xorijiy mamlakatlar va oʻzbeklarning oilalari aks etgan suratlar beriladi va qiyosiy insho yozishlari soʻraladi.
- Talabalar xorijiy mamlakatlarda turli millat vakillaridan tarkib topgan oilalardagi tushunmovchiliklar aks etgan filmni tomosha qiladilar (misol uchun, “My Big, Fat Greek Wedding”, “Bride and Prejudices”, va boshqalar) va ularni bartaraf etishning mumkin boʻlgan yoʻllarini muhokama qiladilar.

6-mavzu Taʼlim

- Talabalar xorijiy mamlakatdagi sinf xonasining suratini muhokama qiladilar va uni oʻz sinf xonalari (jihozlanishi, parta va stullarning joylashishi) bilan taqqoslaydilar.
- Talabalar xorijiy mamlakatlarda oʻqituvchi – talabalar munosabatlari aks etgan filmni (misol uchun, “Dead Poets' Society”) oʻrganilayotgan chet tilidatomosha qiladilar yoki tekstni oʻqiydilar va Oʻzbekistondagi oʻqituvchi – talabalar munosabatlari bilan solishtiradilar.

7-mavzu Shahar va qishloq hayoti

- Loyiha ishiga qoʻshimcha sifatida talabalar oʻz shahar, qishloq yoki viloyatlari haqida sayyohlarga moʻljallangan kitob, qoʻllanma yoki veb-sahifa yaratadilar.
- Talabalar turli mamlakatlarda shahar va qishloqlarda yashovchi kishilarning soni aks etgan statistik maʼlumotlarni koʻrib chiqadilar va muhokama qiladilar.

8-mavzu Dam olish va sport bilan shugʻullanish

- Talabalar mashhur oʻzbek seriallaridan birini (melodrama janrida) muhokama qiladilar va turli madaniyatlardagi seriallarga boʻlgan munosabatlar haqida munozara uyushtiradilar.
- Talabalarga “Chet ellik mehmonni qaysi sport musobaqasini tomosha qilgani olib borgan boʻlar edingiz va nima uchun?” (misol uchun, kurash yoki futbol) mavzusida topshiriq beriladi.

9-mavzu Aloqa va texnologiyalar

- Talabalar turli mamlakatlardagi telefonda suhbatlashish tartiblari haqidagi maʼlumotlarni toʻplaydilar.
 - Talabalar oʻzlari yaratgan veb sahifa chet elliklar uchun tushunarli va qiziqarli boʻlishi uchun nimalar qilinishi lozimligini muhokama qiladilar.
- Nutq koʻnikmalari integratsiyasi moduli “Loyihaga asoslangan oʻqitish” metodikasi asosida olib boriladi. Har bir mavzu bir oy uchun moʻljallangan

bo'lib, talabalar kichik guruhlarga bo'lingan holda mavzu doirasida tanlagan loyihalari ustida ish olib boradilar.

2 kurs davomida talabalar quyidagi mavzular bo'yicha loyiha ustida ish olib boradilar:

1-mavzu. O'zbekiston va dunyo

- Talabalar O'zbekistonga tashrif buyurgan chet elliklarning taassurotlari haqidagi maqolalarni o'qib, tahlil qiladilar.
- Talabalar O'zbekistonga tashrif buyurgan chet elliklarga mo'ljallangan qo'llanma kitob ustida ishlaydilar.

2-mavzu. Kasb-kor va ishbilarmonlik

- Talabalar ishga joylashish haqidagi muammoli vaziyatga yechim izlaydilar va uni kichik sahna ko'rinishida aks ettiradilar.
- Talabalar turli mamlakatlardagi biznes etiketi haqidagi matnni o'qib, muhokama qiladilar.

3-mavzu. Atrof-muhit muhofazasi

- Talabalar xorijiy mamlakatlarda suvdan foydalanish haqidagi muammoli vaziyatga yechim izlaydilar va O'zbekistondagi suvni ishlatish borasidagi tejamkorlik masalalarini muhokama qiladilar.
- Talabalar internet saytlaridagi suratlardan foydalanib, xorijiy mamlakatlarda chiqindilarni qayta ishlash usullari bilan tanishadilar va O'zbekistondagi vaziyat bilan solishtirgan holda muhokama qiladilar.

4-mavzu. Munosabatlar

- Talabalar turli mamlakatlardagi ajralishlar soni aks etgan statistik ma'lumotlar bilan tanishadilar va muhokama qiladilar.
- Talabalar "Xushfe'llikni biz qanday tushunamiz?" mavzusida insho yozadilar.

5-mavzu. Turli madaniyatlararo muloqot

- Talabalar turli mamlakatlarga xos, madaniyatlararo tushunmovchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan xatti-harakat, imo-ishora yoki jumlar namunalarini izlab topadilar va ularni darsda rol o'ynash orqali namoyish etadilar.
- Chet mamlakatga o'qishga borgan talaba duch kelgan muammoli vaziyatni talabalar muhokama qiladilar va unga yechim izlaydilar.

6-mavzu. Ommaviy axborot

- Talabalar xorijiy mamlakatlar radio dasturi yoki teleko'rsatuvni tomosha qiladilar va uning muqobil o'zbekcha talqinini yaratadilar.
- Talabalar xorijiy mamlakatlarda va O'zbekistondagi gazetalar o'qish odatlarini berilgan suratlar asosida muhokama qiladilar.

7-mavzu. Tibbiyot, ilm-fan, zamonaviy texnologiyalar

- Talabalar plastik jarrohlik qildirgan shaxslarning suratlarini muhokama qiladilar va bu boradagi turli mamlakatlardagi munosabatlarni tahlil qiladilar.

- Talabalar turli mamlakatlardagi geni o'zgartirilgan mahsulotlarning qo'llanilish hollari, sabablari va oqibatlari haqida ma'lumotlar to'playdilar va muhokama qiladilar.

8-mavzu. Ta'lim

- Talabalar dunyoning reytingi baland 10 ta universitetlari ro'yxatini muhokama qiladilar va o'z universitetlarini ham ushbu ro'yxatga kirishi uchun nima ishlar qilinishi kerakligi haqida fikr almashadilar.
- Talabalar suratlar asosida turli mamlakatlarning maktab formalarini solishtirib, muhokama qiladilar.

9-mavzu. Ijtimoiy masalalar

- Talabalar Yevropadagi qariyalar uyi haqidagi maqolani o'qiydilar va sharq mamlakatlaridagi qariyalarga bo'lgan munosabat bilan solishtirib, muhokama qiladilar.
- Talabalar turli mamlakatlarda qonunni buzish hollari va ularga belgilangan jazo haqidagi ma'lumotlarni to'playdilar va muhokama qiladilar.

2 -Modul. Og'zaki nutq amaliyoti (tinglash va gapirish)

Og'zaki nutq amaliyoti (tinglash va gapirish) moduli 1-4 semestrlar davomida o'qitiladi. Birinchi kurs yakunida talabalar Yevropa Kengashining "Chet tilini egallash umumevropa kompetensiyalari: o'rganish, o'qitish va baholash" to'g'risidagi umume'tirof etilgan xalqaro me'yorlari (CEFR) ga ko'ra qariyb B1-B1+ va 2 kurs yakuniga borib B2 darajada chet tilida tinglab tushuna olishlari va so'zlasha olishlari nazarda tutiladi. Yevropa Kengashining "Chet tilini egallash umumevropa kompetensiyalari (CEFR)" me'yorlarida belgilanganidek og'zaki muloqotni egallash bo'yicha birinchi bosqichda asosiy e'tibor muloqot strategiyalarini rivojlantirishga va dialogda suhbatga kira olishga qaratilsa, ikkinchi kursga kelib monolog (prezentatsiya, debat, kasbga doir intervyu) ko'rinishdagi og'zaki muloqotni rivojlantirishga qaratiladi.

Modul mazmuni

1 kurs davomida quyidagi mavzular doirasida talabalarning tinglash va gapirish ko'nikmalari rivojlantiriladi:

- Shaxs va shaxsiyat
- O'zbekiston va o'rganilayotgan chet tilida so'zlovchi mamlakatlarda milliy ramzlar, davlat tuzilishi
- Oziq-ovqat
- Sihat-salomatlik
- Oilaviy qadriyatlar
- Ta'lim
- Shahar va qishloq hayoti

Tinglash uchun mo'ljallangan matn turlari:

- dialoglar, suhbatlar;
- telefon orqali muloqot;

- jamoat joylaridagi e'lonlar (masalan, temir yo'l vokzali, aeroportdagi e'lonlar);
- ko'rsatmalar, yo'riqnomalar (masalan, auditoriyadagi o'qituvchining ko'rsatmalari, ovqat tayerlash);
- velosipedni (texnika vositalarini) ta'mirlash singari oson ko'rsatmalar);
- tele va radio xabarlar, ob-havo ma'lumotlari;
- monologlar (masalan, prezentatsiyalar, nutqlar);
- tele va radio hujjatli filmlar;
- badiiy filmlar;
- qo'shiqlar
- audio kitoblar va h.k.

Og'zaki muloqot(dialog) bo'yicha:

- turli kommunikativ nutq vaziyatlari (salomlashish, kechirim so'rash, xayrlashish, minnatdorchilik bildirish va h.k.) ni to'g'ri o'zlashtirishi;
- o'ziga yoqqan va yoqmagan narsalar, jihatlar haqida fikrini bayon etishi; - o'zi haqida shaxsiy ma'lumotlarni bera olishi;
- so'zlovchi nutqini tushunganligi yoki yaxshi anglay olmaganligini ifodalashi (masalan, so'zlovchidan gapini yana bir marta takrorlashni, izohlash, savol berish va h.);
- muloqotni davom ettira olish;
- intervyu olish va savollarga javob qaytarish;
- tanish mavzularda muhokamalarda qatnashishi;
- navbat bilan muloqotga kirishishi, so'zlovchining nutqini bo'lmasligi yoki bo'lishga to'g'ri kelgan vaziyatlarda muloqotni davom ettirishi;
- muloqotni boshlash va tugallash strategiyalarini egallashi;
- jumalarni perifraza qilish va qaytadan ta'kidlashi;
- og'zaki muloqotda tegishli milliy-madaniy me'yorlarni (masalan, *iltimos* va *rahmat* so'zlarining turli madaniyatlarda ishlatilishi, salomlashish odobi) bilishi va ularni to'g'ri qo'llashi; muloqot jarayonida tegishli imo-ishoralardan (masalan, diqqat bilan tinglayotganligini ko'rsatish uchun oldinga sal engashish, tushunayotganligini ifodalash uchun bosh irg'ashi) o'rinli foydalanishi.

O'qituvchi tomonidan talaffuzga alohida e'tibor qaratilishi kerak.

- intonatsiya (intonatsiyaning grammatik va munosabat bildiruvchi funksiyalarini farqlash)
- urg'u (so'z urg'usi, gap urg'usi)
- tovushlarni transkripsiyalar orqali o'qiy olishi;
- ona tili interferensiyasi

2 kurs davomida quyidagi mavzular doirasida talabalarning tinglash va gapirish ko'nikmalari rivojlantiriladi:

- O'zbekiston va dunyo
- Kasb-kor va ishbilarmonlik
- Atrof-muhit muhofazasi

- Munosabatlar
- Turli madaniyatlararo muloqot
- Ommaviy axborot
- Tibbiyot, ilm-fan, zamonaviy texnologiyalar
- sohasidagi etika masalalari
- Ta'lim
- Ijtimoiy masalalar

Tinglashga mo'ljallangan matn turlari:

- suhbat, dialoglar;
- telefonda suhbat
- jamoat joylaridagi e'lonlar (masalan, vokzal/aeroport e'lonlari)
- televideniye va radio orqali beriladigan yangiliklar;
- tele va radio dasturlar (tok-shou, hujjatli filmlar);
- o'qish va kasbga oid mavzularda prezentatsiyalar, nutqlar, ma'ruzalar;
- badiiy filmlar
- intervyular
- qo'shiqlar
- audio kitoblar

Og'zaki muloqot bo'yicha:

Dialog

- o'qish va kasbga oid mavzulardagi dialoglarda ishtirok etib, ma'lumot almashish;
- tegishli intonatsiya va urg'udan foydalanib hissiyotlarini ifoda eta olish;
- turli mavzularda davomiy dialogga kirishish;
- avvaldan tayyorlangan holda intervyu olib borish, ma'lumotlarni tekshirish va tasdiqlash, qiziqarli javoblarga e'tibor qaratish;
- muhokamalarda tegishli izohlar, argumentlar va sharhlar bergan holda o'z fikrini bayon qilish va uni himoya qilish;

Monolog

- o'z qiziqishlariga oid mavzularda batafsil hisobotlar;
- yangiliklar, intervyu yoki hujjatli filmlardan parchalar mazmunini qisqacha bayon etish;
- rasmiy vaziyatlarda dolzarb mavzular bo'yicha o'z nuqtayi nazarini ifoda etish;
- debatlarida asosiy ma'ruzachi sifatida ishtirok etish;
- ikkinchi kurs mavzulari bo'yicha prezentatsiyalar qilish;

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar davomida talabalar yakka holda, juftlikda va kichik guruhlarda ishlaydilar. O'qitish metodikasi amaliy vazifalar, dolzarb maqolalar muhokamasi, turli janrdagi matnlarni tahlil qilish, internet matnlari bilan ishlash, tinglab tushunish va gapirish ko'nikmalarini

baholovchi testlar va mustaqil o'qishga yo'naltirilishi lozim. Amaliy mashg'ulotlar zamonaviy multimedia vositalari bilan jihozlangan auditoriyada interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Talaba mustaqil ta'limni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlari hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalardagi mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar tayyorlashni o'rganish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha mavzular ustida ishlash;
- talabaning o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1-Modul:

1-kurs

1. "Bizning kitob" (mashhur shaxslar, do'stlar, yoki ota-onalar haqida kitob)
2. "Birinci uchrashuvlar" (poster shaklidagi prezentatsiya)
3. "Milliy ramzlar" (poster shaklidagi prezentatsiya)
4. O'rganilayotgan chet tilida so'zlashuvchi mamlakatlarning davlat tuzilishi (bilimlar musobaqasi)
5. "Sog'lom ovqatlanishning 10 qoidasi" (qo'llanma)
6. "Pazandalik kitobi" (taomlarning suratlari va tayyorlanish jarayonlari aks etgan kitob)
7. "Qanday qilib sog'lom turmush tarzini olib borish mumkin" (poster shaklidagi prezentatsiya)
8. "Qanday qilib chekishni tashlash mumkin" (broshyura)
9. "Oilaviy albom" (qisqa film)
10. "Oilaviy qoidalar" (poster shaklidagi prezentatsiya)
11. "Mening orzuimdagi maktab" (poster shaklidagi prezentatsiya)
12. "O'qituvchilar galereyasi" (katta hajmli poster)
13. "Shahrimizga xush kelibsiz" (broshyura)
14. "Shahar loyihasi" (shahar loyihasi prezentatsiyasi)
15. "Melodrama" (syujet yozish)
16. "Turli madaniyatlarda sport" (ma'lumotlar aks etgan poster)
17. "Iste'molchi bayonoti" (mobil telefonlar haqida)
18. "Bizning guruh haqida" (veb-sahifa yoki blog yaratish)

2-kurs

1. "O'zbekistonga xush kelibsiz!" (sayyohlar uchun kitob)
2. "O'zbekistonni kashf qiling!" (turizm yarmarkasi)
3. "Intervyular" (so'rovnoma asosidagi bayonot)
4. "Biznes etiketi" (tadbirkorlar uchun qo'llanma)

	5. “Bizning sayyora” (atrof-muhitni asrash muammolariga bag‘ishlangan konferensiya) 6. “Atrof-muhitning ifloslanishi” (poster shaklidagi prezentatsiya) 7. “Nikohdan jralish” (nikohdan ajralish sabablari aks etgan kichik drama) 8. “Turli mamlakat-larda xushfe’llik qanday tushuniladi?” (suratli prezentatsiya) 9. Xatti-harakat va imo-ishoralar (poster shaklidagi prezentatsiya) 10. O‘zga madaniyatni anglash muammosi (chet mamlakatga o‘qishga borgan talabalar uchun qo‘llanma) 11. “Internet 10 yildan so‘ng” (radio dastur) 12. “Bizning gazeta” (guruh gazetasi) 13. “Plastik jarrohlik” (ilmiy konferensiya) 14. “Geni o‘zgartirilgan mahsulotlar” (ilmiy konferensiya) 15. Mening orzuimdagi universitet” (ta’lim yarmarkasi) 16. “Maktab formasi” (poster shaklidagi prezentatsiya) 17. Jamoatchilik ishlari” (qariyalarga ko‘maklashish, mehribonlik uylariga tashrif kabilar) (video film) 18. “Adolat va qonun” (tok shou) 2-modul: 1. O‘zbekiston va dunyo 2. Kasb-kor va ishbilarmonlik 3. Atrof-muhit muhofazasi 4. Munosabatlar 5. Turli madaniyatlararo muloqot 6. Ommaviy axborot vositalari 7. Tibbiyot, ilm-fan, zamonaviy texnologiyalar sohasida etika 8. Ijtimoiy tarmoqlar 9. Ijtimoiy masalalar 10. Madaniyat va san’at 11. Shaxs va shaxsiyat 12. O‘zbekiston va tili o‘rganilayotgan mamlakatlarda milliy ramzlar, davlat tuzilishi 13. Oziq-ovqat 14. Sihat-salomatlik 15. Oilaviy qadriyatlar 16. Shahar va qishloq hayoti 17. Aloqa va axborot texnologiyalari
3.	V. Ta’lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

	Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: • chet tilini Umum Yevropa standartlariga ko'ra C1 darajada o'zlashtirishi, o'rganilayotgan chet tilida o'qish, tinglab tushunish, gapirish va yozish ko'nikmalar, til ko'nikmalarini takomillashtirish bilan bir qatorda transverbal ko'nikmalar, o'zining til ko'nikmalarini rivojlantirish borasidagi faoliyatini baholay olish va refleksiya ko'nikmalariga, og'zaki va yozma nutq amaliyoti bo'yicha tasavvur, bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi; (bilim) • tinglab tushunish, so'zlashish, o'qish va yozish ko'nikmalarini axborot qabul qilish va yetkazish uchun amalda qo'llay olish, nutq ko'nikmalarini qo'llash borasida mahoratlarini oshirib, o'z kamchiliklarini aniqlash va ularni kommunikativ topshiriqlar vositasida tuzatish, belgilangan mavzular bo'yicha suhbat olib borish, kichik rollarni o'ynash, muhokamalar uyushtirish, sheriklikda yoki kichik guruhlariga bo'lingan holda ishlash, mavzusi qisman tanish va tilning murakkablik darajasiga ko'ra tanlangan matnlarni, shuningdek autentik materiallarni (masalan, kitob, jurnal, gazeta, broshyura, hujjat, film, audio tasma, ma'ruza va boshqalardan) o'qish, tinglab tushunish, ma'lumotlar to'plash va ulardan amalda foydalanish; (ko'nikma) • prezentatsiyalar orqali o'z fikrlarini aniq bayon qilish, tili o'rganilayotgan mamlakat madaniyati va o'z madaniyatlarini qiyoslash va taqqoslash malakasini oshirish, madaniyatlararo muloqotga taalluqli masalalarga tanqidiy nuqtayi nazar bilan yondashish, ularni to'g'ri talqin qilish, tinglab tushunish, so'zlashish, o'qish va yozish ko'nikmalarini uyg'unlashtirgan holda turli mavzularga doir loyiha ishlarini bajarish orqali malakasini rivojlantirishi kerak. (malaka)
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar; • interfaol keys-stadilar; • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish;

	• individual loyihalar; • jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar; • kommunikativ metodlar; • kognitiv metodlar.
5.	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid amaliy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy nazorat shaklida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha savollarga javob berish.
6.	Asosiy adabiyotlar: 1. Craven Miles, “Listening and speaking 1”, Cambridge university press; 2008 2. Frazier Laurie, Mills Robin, Boyd Frances, Numrich Carol, “NorthStar 2”, USA; Pearson education inc; 2009 3. Parsons Jenny, Duffy Matthew, Williams Damian, “Speakout 2nd edition Elementary Teacher`s Book”, Pearson Education Limited; 2015 4. Philpot Sarah, Curnick Lesley, Soars John Liz, “Academic skills level 2”, Oxford university press; 2011 5. Liz Driscoll. Reading Extra. A resource book of multi-level skills activities encouraging students to read material on different levels and in different ways. Cambridge university press; 2007 6. Brown Steven, Smith Dorolyn, “Active listening 1”, New York; Cambridge university press; 2007 7. Klippel Friederike, Swan Michael, “Keep Talking”, America; Cambridge university press; 2006 8. Harrison Richard, Soars John Liz, “Academic skills Listening, Speaking, and Study Skills”, United Kingdom; Oxford university press; 2011 9. Maurice Cogan Hauck, “12 American Voices”, London; Yale university press; 2002 10. Craven Miles, “Listening extra”, USA; Cambridge university press; 2004 11. Clare Antonia, Wilson, “Speakout 2nd edition Pre-intermediate students’ book”, Pearson Education Limited; 2015 12. Freire Robert, Jones Tamara, “Q: Skills for success 4”, USA; Oxford university press; 2011

13. Ferree Tess, Sanabria Kim, Boyd Frances, Numrich Carol, "NorthStar 4", USA; Pearson education inc; 2009
14. Foley Mark, Hall Diane, "Distinction", England; Longman; 1993
15. Haines Simon, "Advanced Skills", USA; Cambridge university press; 2006
16. <https://www.ucl.ac.uk/english-sage/archives/2022report.htm>

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Sh.M. Mirziyoyev "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 48 b.
2. Sh.M. Mirziyoyev "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". – T.: "O'zbekiston". – 2017. – 102b.
3. Sh.M. Mirziyoyev. "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz". – T.: "O'zbekiston", 2017. – 488b.
4. Sh. M. Mirziyoyev 7 fevral 2017 yil kuni "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947 sonli farmonni
5. Sh.M. Mirziyoyevning "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. T.: 2016y. 29-dekabr
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-fevraldagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarini xorijiy til va zamonaviy kasblarga o'qitish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-53-sonli qarori
7. Jeremy Harmer. Just. Listening and Speaking. Cambridge 2008.
8. Logan Sally, Craig Thaine, «Real listening and speaking 2», Cambridge university press; 2008
9. Caroline Becket. Listening 1. Cambridge 2003.
10. Robert Freire, Tamara Jones. Q:Skills for Success. Listening and Speaking. Oxford 2011
11. Diane Larse Freeman. Techniques and principles in language teaching. Oxford 2011
12. Philip Kerr. Straightforward Pre-Intermediate. Macmillan, 2009.
13. Sarah Cunningham and Peter Moor. *Cutting Edge. Intermediate*. Longman, 2005
14. Alireza Memarzadeh. IELTS. Maximiser Educational Book. Speaking. 2018.
15. Jack Richards and Theodore S. Rodgers. Approaches and methods in language teaching. Cambridge University press. 2016

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI

	1. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda) 2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 - yil 6 – noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim - tarbiya va ilm - fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108 - son farmoni. Axborot manbaalari: 1. https://ibratfarzandlari.uz/ 2. www.teachingenglish.org.uk 3. www.onestopenglish.com 4. www.learnenglish.org.uk 5. www.tesol.org. 6. www.tefl.com, 7. www.teachertrainingvideos.com 8. www.educationuk.org 9. www.bbc.co.uk/worldservice/learningenglish 10. www.better-english.com/exerciselist.html 11. www.englishclub.com/index.htm
7.	Fan dasturi Qo‘qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2025 yil 30-iyundagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan.
8.	Fan/modul uchun mas’ullar va dastur mualliflari: V.Karimova – Qo‘qon DU, Ingliz tili va adabiyoti kafedrası mudiri, dotsent, (PhD) D.Burxanova – Qo‘qon DU, Ingliz tili va adabiyoti kafedrası v.b.dotsenti, (PhD)
9.	Taqrizchilar: U.A.J.Jabbarov – Oila va gender ilmiy - tadqiqot instituti ilmiy kotibi, PhD dotsent. Sh.X.Djabbarov - Jizzax davlat pedagogika universiteti Ingliz tili o‘qitish metodikasi kafedrası mudiri, PhD